

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

IJTIMOIY SIYOSAT – O'ZBEKISTONDA DAVLAT SIYOSATINING MUHIM USTUVOR YO'NALISHI

Umatov Azamatdin Kurbanievich

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy siyosatning maqsadi va mexanizmlari, jamiyatning mehnatga layoqatsiz a'zolari ijtimoiy himoyalanganligining asosiy kafolati davlat ijtimoiy siyosatini amalgaloshirishning muhim shakli bolgan -iste'mol jamoatchilik fondlari masalalari xaqida so'z boradi.

Kalit so`zlar: Ijtimoiy siyosat, Yangi O'zbekiston, mexanizm, siyosat, xalq, muammo, globallashuv, kelajak.

Abstract: The article will talk about the goals and mechanisms of social policy, an important priority of state policy in Uzbekistan, the main guarantee of social protection of incapacitated members of society, which is an important form of implementation of state social policy-issues of consumer public funds.

Keywords: Social Policy, New Uzbekistan, mechanism, politics, people, problem, globalization, future

Mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, do'stona va tenglikka asoslangan ichki va tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni va xamdo'stlik davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Bu orqali O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, do'stona va tenglikka asoslangan ichki va tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni va xamdo'stlik davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Bu orqali O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Jamiyatning mehnatga layoqatsiz a'zolari ijtimoiy himoyalanganligining asosiy kafolati davlat ijtimoiy siyosatini amalgaloshirishning muhim shakli bo'lib, iste'mol jamoatchilik fondlari hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat asosi sifatidagi ijtimoiy kafolatlar tizimining qaror topishi mustahkam qonunchilik negizini shakllantirishni taqozo etadi. [1]

O'zbekistonning mustaqilligini asrash va mustahkamlash, vatanimizning gullab-yashnashini ta'minlash, mamlakatda fuqarolik va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik,

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

har bir oila va butun xalq farovonligiga erishish kabi umummilliy manfaatlarni o'z mafkurasi va siyosiy faoliyatining poydevori juda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ijtimoiy siyosatda ijtimoiyadolat ta'minlanishi zarur. Jamiyatdagi ijtimoiyadolatni ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish, aholining turli qatlamlari o'rtasidagi farqni kamaytirish ijtimoiy barqarorlikka olib keladi va aholining turmush sifatini yaxshilaydi. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rirlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar o'z ijobjiy natijasini bermoqda. Birgina "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 2021 yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. [2]

Keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiy qamrov 28 foizga yetdi. Bizga ma'lumki, bundan 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirildi ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning ham 2 ming nafariga bu yil oliygochlarga kirish uchun alohida grantlar ajratildi. 2030 yilga qadar bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish reja qilinmoqda. Mamlakatimizda uzlusiz milliy ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg'un va mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Oxirgi 5 yilda bolalarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darjasini ilgarigi 27,7 foizdan 2 barobar ortib, 60 foizga yetgan, bog'chalar soni esa 3 marta ko'payib, 14 mingdan oshdi. Qishloqlarda ishsiz yoshlarni bandligini ta'minlash maqsadida ularga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratish boshlandi. Yoshlar o'rtasida kambag'allikni kamaytirish, ularni o'zini o'zi band qilishga rag'batlantirishda "Yoshlar daftari", yoshlar dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Temir daftar"dagi oilalar farzandlari bo'lgan 2 mingdan ziyod talabaning kontrakt pullari to'lab berildi. Yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rin topishi, "Mehribonlik uylari", maxsus maktab-internatlar va "Bolalar shaharchasi"ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e'tibor berilmoqda

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

Keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiyl qamrov 28 foizga yetdi. Bizga ma'lumki, bundan 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirildi ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning ham 2 ming nafariga bu yil oliygochlarga kirish uchun alohida grantlar ajratildi. 2030 yilga qadar bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish reja qilinmoqda. Mamlakatimizda uzluksiz milliy ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg'un va mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Oxirgi 5 yilda bolalarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi ilgarigi 27,7 foizdan 2 barobar ortib, 60 foizga yetgan, bog'chalar soni esa 3 marta ko'payib, 14 mingdan oshdi. Qishloqlarda ishsiz yoshlarni bandligini ta'minlash maqsadida ularga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratish boshlandi. Yoshlar o'rtaida kambag'allikni kamaytirish, ularni o'zini o'zi band qilishga rag'batlantirishda "Yoshlar daftari", yoshlar dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Temir daftar"dagi oilalar farzandlari bo'lgan 2 mingdan ziyod talabaning kontrakt pullari to'lab berildi. Yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rin topishi, "Mehribonlik uylari", maxsus maktab-internatlar va "Bolalar shaharchasi"ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. [3]

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shahs o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvonu mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida hizmatlari, sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu ma'noda inson rivoji imkoniyatlariga bog'liq.

Albatta, inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasigina emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo'sh vaqtini o'tkazadigan sohalarda shakllanadi. Ijtimoiy infrastruktura inson hayotida kuchli ta'sirga ega. Sog'liqni saqlash shunday sohalardan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab prezidentimiz tashabbusi bilan «Sog'lom avlod uchun» umumhalq harakati boshlangan edi. Sog'lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va o'zining natijalarini bera boshladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvida Ijtimoiy siyosatning ahamiyati juda katta. Ijtimoiy siyosat aholining hayotini yaxshilash, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va mamlakatning kelajagini yaxshilashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvida Ijtimoiy siyosatning ahamiyati juda katta. Ijtimoiy siyosat aholining hayotini yaxshilash, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va mamlakatning kelajagini yaxshilashga xizmat qiladi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

REFERENCES:

1. Lalixon Muxamedjanova. "XIX asrning oxiri XX asr boshlarida jadidchilikni vujudga kelishi va uning milliy uyg'onish harakati sifatidagi mohiyati" VZGLYaD V PROShLOE. 2021. SI-3.
2. Ijtimoiy siyosat – O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi.
<https://kun.uz/news/2021/12/14/ijtimoiy-siyosat-ozbekistonda-davlat-siyosatining-muhim-ustuvor-yonalishi>
3. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi